

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

"Tasdiqlayman"
O'zbekiston davlat
konservatoriyasi rektori

K.T.Urinbayev

« 17 » 06 2025-yil

"Kelishildi"
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi

« 17 » 06 2025-yil

"Kelishildi"
O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi

« 17 » 06 2025-yil

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

60211300 - Ta'lim yo'nalishi: Dirijorlik

60211302 – Dirijorlik: opera-simfoniya dirijorligi

**60211305 – Dirijorlik: estrada orkestri dirijorligi
ta'lim yo'nalishlar uchun**

Toshkent – 2025 yil

Dastur O'zbekiston davlat konservatoriyasining O'quv – uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va maqullangan (20 25 - yil 30 May dagi 10 - sonli majlis bayoni)

Tuzuvchilar:

Abrarov G'.SH. – O'zDK, “Orkestr dirijorligi” kafedrası mudiri,

Abduraximova F.R. O'zDK, “Orkestr dirijorligi” kafedrası professori

Ergasheva Ch.E. - O'zDK, “O'zbek musiqasi tarixi” kafedrası kafedrası mudiri, dotsent, (PhD)

Mirtalipova I.M. - O'zDK, “Musıqa nazariyasi” kafedrası mudiri, (PhD)

Taqrizchilar:

Saxiyev A.D. - O'zDK, “Orkestr dirijorligi” kafedrası dotsenti

Abdullayeva A.K. - “Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq artisti, professor

Kirish

Bakalavriat ta'lim bosqichiga kiruvchi abituriyentlar uchun tuzilgan mazkur dastur
– bakalavriat ta'lim yo'nalishining

60211302 – Dirijorlik: opera-simfoniya dirijorligi,

60211305 – Dirijorlik: estrada orkestri dirijorligi

ixtisosliklari bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihonlarni olish uchun
mo'ljallangan.

Fanning maqsadi va vazifalari

Barcha yo'nalishdagi ixtisoslik fanlari uchun tuzilgan mazkur umumiy dasturda qo'yilgan asosiy maqsad - barcha ixtisoslik sinflarida ijodiy (kasbiy) imtihonlarni qay yo'sinda olib borish va qanday uslublar bilan abituriyent bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash haqida tavsiflar beriladi. Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, aql zakovati hisobga olingan tarzda me'yoriy dasturni o'zlashtirish ustida ish olib boriladi.

"Dirijorlik san'ati" fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Alohida e'tibor professional darajani mukammallashtirishga, ijrochilikning texnik rivojiga, artistik mahoratini rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilishi kerak. Ixtisoslik fani yuzasidan talaba davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo'lgan, ya'ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog'onalari xususan, adabiyot va san'at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo'lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

60211302 – Dirijorlik: opera-simfoniya dirijorligi,

60211305 – Dirijorlik: estrada orkestri dirijorligi

mutaxassisligi bo'yicha o'qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida sinfda kirish talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko'zda tutilgan.

O'qishga kiruvchi 20-daqiqagacha bo'lgan vaqt mobaynida tayyorlangan asarga dirijorlik qilib, 10-daqiqagacha bo'lgan vaqt mobaynida kollokvium topshirishi talab etiladi.

"Dirijorlik" sohasi bo'yicha o'qishga kiruvchi quyidagi bo'limlardan iborat tanlovli imtihon topshiradi:

1. Mutaxassislik bo'yicha kirish imtihonlari quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

- Dasturni ijro etish
- Kollokvium
- Fortepiano

Dasturni ijro etish:

Kiruvchi bajarishi shart:

1 bosqich – dasturni ijro etish

Yirik shakldagi asarni fortepiano jo'rligida dirijorlik qilib berish. Masalan: simfoniya bir – ikki qismi yoki operaning bir ko'rinishi, uvertyura va hokazo (10 daqiqadan kam bo'lmasligi lozim.)

2 bosqich -kollokvium

1. Eshitish qobiliyati tahlili: Forteplanoda ijro etilgan lad, interval, akkordlarni, I darajali qardosh modulyatsiyani va garmonik ketma-ketliklarni tinglab, aniqlash;
2. Imtihon qabul qiluvchi tomonidan tanlangan partituraga qarab, asar nomi,uning muallifi, va qaysi qismi ekanligini aniqlash;

3 bosqich - fortepiano

- 1.Forteplanoda polifonik asar ijro etish;
2. Forteplanoda maxsus tayyorlagan biron bir etyud ijro etib berish.

Dirijorlik qilish uchun asarlarning namunaviy ro'yxati:

1. L. Betxoven - Simfoniylar №1, №2, №5, №7 (qismlardan biri); uvertyuralar: "Koriolan", "Egmont".
2. A. Borodin - Simfoniya № 2 (qismlardan biri); "Knyaz Igor" operasidan Uvertyura, sahnalar va Polovets raqslari.
3. I. Brams - Simfoniylar №1, №4 (qismlardan biri).
4. R. Vagner - "Rientsi" operasiga Uvertyura
5. K. Veber – operalarga uvertyuralar: "Oberon", "Evrianta", "Volniy strelok".
6. Y. Gaydn - simfoniylar (abituriyent hohishi bo'yicha, qismlardan biri).
7. A. Glazunov - Simfoniya №1, №5, №6 (qismlardan biri); Torjestvennaya uvertyura.
8. M. Glinka - Simfonik orkestr uchun fantaziya "Kamarinskaya", "Ruslan va Lyudmila", "Ivan Susanin" operalariga uvertyura va raqslar.
9. V. Kalinnikov - Simfoniya № 1 (qismlardan biri).
- 10.F. List – simfonik poemalar "Preljudi", "Tasso".
- 11.F. Mendelson - Simfoniylar №3, №4 (qismlardan biri); uvertyuralar "Fingalova peshera", "Ryui Blaz".
- 12.V. Motsart – simfoniylar (abituriyent xoxishi bo'yicha, qismlardan biri), uvertyuralar.
- 13.M. Musorgskiy - "Xovanshina" operasiga Kirish ("Rassvet na Moskva-reke"), simfonik kartina "Noch na Lisoy gore"
- 14.N. Rimskiy-Korsakov - Ispan kaprichchiosi, "Mayskaya noch", "Sarskaya nevesta" operalaridan parchalar;
- 15.A. Xachaturyan - "Spartak", "Gayane" baletlaridan syuitalar
- 16.P. Chaykovskiy - Simfoniya № 1, № 2, № 5 (qismlardan biri), Torli orkestr uchun Serenada, "Uvertyura-fantaziya "Romeo va Djuletta", "Gamlet", "Francheska da Rimini" simfonik fantaziyasi, "Oq qush ko'li", "SHelkunchik", "Uyqudagi go'zal" baletlaridan syuitalar.
- 17.F. Shubert – Simfoniylar № 4, № 5, № 8 (qismlardan biri).

18.S. Prokofyev – Simfoniya № 7 (qismlardan biri).

19.F. Alimov – xalq cholg'ulari orkestri uchun uvertyuralar: "Shodiyona", "Tabriknoma", "Markaziy Osiyo xalqlari mavzulariga poppuri".

20.S. Boboyev - xalq cholg'ulari orkestri uchun "Uvertyura".

Qo'shimcha ravishda estrada-jaz uslubidagi biror eng taniqli kuy fonogrammasiga boshlanishini bir eshitib olib dirijyorlik qilish.

Kollokvium

Abituriyentning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlab beruvchi savollar kiritilishi kerak:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha adabiyotlarni, jumladan orkestr tarkibidagi (simfonik, xalq cholg'ulari va damli (harbiy) orkestr) cholg'ularning ijrochilik va transport imkoniyatlarini, musiqiy terminologiyani;

- musiqa o'rta maxsus o'quv yurti hajmida musiqa adabiyoti dasturini;

- orkestr partiturasini o'qishni, va partituraning biron bir partiyaning kuylab berishni;

- abituriyent musiqaning turli yo'nalish va janrlarini, musiqiy shakl turlarini bilishi zarur.

Bulardan tashqari, kiruvchilar imtihonda ijro etilgan biron bir asarni mazmuni, uslubi va ijrochilik vositalarini tahlil qilib berishlari kerak.

Mutaxassislikdan kollokvium topshirish uchun kerak bo'lgan orkestr ijrochiligi va dirijorlik fani bo'yicha olinadigan bilimlarning adabiyotlari ro'yxatini bilishlari kerak.

Ijodiy imtihon abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

1. Dirijorlik

№	Ijro talablari	To'liq javob uchun ball
1.	Qo'llar holati, dirijorlik postanovkasi	8,0
2.	Auftaktlar	7,0
3.	Kaftlar xolati	7,0
4.	Asarning yodlanganligi	7,0
5.	Orkestr cholg'ulariga ko'rsatish	7,0
6.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	6,0
7.	Asarda muayyan badiiy obrazning gavdalanishi	5,0
8.	Manual texnika	5,0
9.	Eshitish qobiliyati	5,0
	Jami	57,0

2. Kollokvium

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Asarga oid savollar (ijro etilgan asar bo'yicha)	4,0

2.	Musiqiy cholg'ular bo'yicha savollar	3,0
3.	Musiqi adabiyoti bo'yicha savollar	2,0
4.	Partitura o'qish ko'nikmasi	2,0
5.	Asarning shakl nuqtai nazaridan tahlili	2,0
6.	Notadan o'qish ko'nikmasi	3,0
	Jami	13,0

Ballarning bo'linishi:

Dirjorlik bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball - **57,0 ball**

Kollokvium bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **13,0 ball**
Jami 70.0 ball

“FORTEPIANO”

fani

Abituriyent ijro dasturiga qo'yiladigan talablar

Imtihon jarayonida abituriyentlar uchun vazifa belgilanadi: ikkita asardan iborat dasturni ijro etish. Dastur polifonik (XVI – XX a.) va etyud asarlaridan tuziladi. Ijro sifatiga qo'yiladigan talablar:

- asar matnini aniq ijro etish (metroritm, temp, dinamika)
- texnik erkinlikni namoyish qilish
- musiqiy asarni shaklini to'g'ri tuzish
- asarning badiiy mazmunini yetkazib berish.

“Fortepiano” fanidan asarlarning namunaviy ro'yxati:

Polifoniya asarlari:

I.Matteson

-Syuita c-moll

I.S.Bax

-2 ovozli invensiya (erkin tanlov), 3-x ovozli invensiya №1-15, XTK tom 1 Preljudiya va fuga c-moll, d-moll, B-dur, Fantaziya c-moll, Fuga d-moll, Syuita B-dur, «Французские сюиты» (erkin tanlov), «Английские сюиты» a-moll, Preljudiya Burre g-moll, Gavot, Alemanda e-moll, Маленькие прелюдии и фуги, Каприччио из партиты c-moll,

G.Gendel

-12 легких пьес, Sarabanda, Jiga, Preljudiya, Allemanda,

I.S.Bax -

- “8 organ preljudiya va fuga” (erkin tanlov)

D.Kabalevskiy

M.Glinka

-Fuga a-moll i Es-dur

N.Myaskovskiy

-op 78 Fuga h-moll; or 43 Fuga “В старинном стиле”

D.Shostakovich

-op 34 Preljudiya №4, op 87 Preljudiya va fuga №1

S.Maykapar

-op 8 Fugetta gis-moll, op 37 Preljudiya va fugetta a-

D.Kabalevskiy moll
-Prelyudiya va fuga "Летним утром на лужайке"

Etyudlar

K.Cherni -op 299 (erkin tanlov) op 740 (erkin tanlov)
K.Cherni – G.Germer -Избранные фортепианные этюды ch.2

A.Leshgorn -Избранные фортепианные этюды (erkin tanlov)
I.Kramer -60 избранных этюдов 1,3,4,7,8,10
L.Shitte -Etyudlar (erkin tanlov)
G.Lemuan -Etyudlar (erkin tanlov)
M.Klementi – K.Tauzig -Etyudar № 1,2,3,5,

Arenskiy -2 ta Etyud op 41 № 1, op 42 № 3
M.Moshkovskiy -Etyud №2, №6
A.Gedike -soch.101 "12 Мелодических этюдов"
A.Bertini -soch. 29 va 32 Сборник "28 избранных этюдов"

BAHOLASH MEZONI:

	Ijro dasturi uchun belgilangan talablar	Ijro uchun ball
1.	Asarni belgilangan repertuarga muvofiqligi	6,0
2.	Asarni belgilangan tempda va texnik jihatdan erkin ijro etish	6.0
3.	Asarda metroritm, dinamika, intonaziy va shtrix talablari	6,0
4.	Asarni ijrosi janr va mazmuniga muvofiqligi	5,0

"Fortepiano" fani bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **23.0 ball**
Mazkur ta'lim yo'nalishida ijodiy imtihon (Opera-simfoniya dirijorligi va Fortepiano) uchun qo'yiladigan maksimal ball – **93,0 ball.**

2-fan

MUSIQA TARIXI VA NAZARIYASI

"Musika tarixi va nazariyasi" fanidan sinovlar 3 bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqichda abituriyent "Musika adabiyoti" fani boyicha og'zaki savollarga javob berishi lozim.

2-bosqichda abituriyent "Garmoniya" fani boyicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim.

3-bosqichda abituriyent "Solfedjio" fani boyicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim.

1-bosqich "Musika adabiyoti" fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning "Musika adabiyoti" fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko'nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat. Ma'lumki, musiqiy asarlarni ijro etilishida ularning yaratilish davri, yo'nalishi,

janri va shakl tamoyillari yuzasidan bilim ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi. Shunga ko'ra abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- musiqiy asarlarni yaratilish davri, yo'nalishi, janri va shakl tamoyillarini bilish;

- mumtoz musiqaning yetuk namunalari xususida birlamchi bilimga ega bo'lish.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyent "Musika adabiyoti" fanidan o'quv dasturi doirasida to'laqonli bilimga ega bo'lganligini og'zaki yoki yozma holda namoyish etishi, o'z javobini musiqiy namunalarni fortepiano sozida chalib ko'rsatish yoki kuylab berish orqali tasdiqlashi talab etiladi. Sinov jarayonida abituriyentning eruditsiya, madaniy hodisalarni anglash, musiqa san'atining tarixiy jarayonlardagi ahamiyatini tushunish kabi xususiyatlari yorqin namoyon bo'lishi kerak.

"Musika adabiyoti" fanidan og'zaki topshiriqlar:

- a) ijro dasturiga oid savollar: (asarning shakl jihatidan tahlili, muallifi, yaratilgan davri va ijro yo'nalishi, ijroning badiiy xususiyatlari va h.k.);

- b) o'rta maxsus ta'limning umumiy kursi darajasida musiqa adabiyotidan egallagan bilimlarni tekshirish;

- v) janr va shakl nuqtai nazaridan kichik hajmdagi - sonatina, romans, kuy va b. asarlarni tahlil qilish qobiliyati kabilarni o'z ichiga oladi;

Shuningdek, "Musika adabiyoti"da abituriyentning musiqa san'ati va boshqa san'at turlaridan, o'zbek va chet el musiqasida ma'lum va mashhur asarlar, zamonaviy an'analar haqidagi bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi.

1-bosqich bo'yicha baholash

No	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1	Asarga oid savollar	3,0
2	Chet el musiqa adabiyoti bo'yicha savollar	6,0
3	O'zbek musiqa adabiyoti bo'yicha savollar	6,0
4	Asarning janr va shakli nuqtai nazaridan tahlili	6,0

1-bosqich "Musika adabiyoti" bo'yicha baholash uchun qo'yiladigan maksimal ball – 21, 0 ball

2-bosqich "Garmoniya" fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning "Garmoniya" fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko'nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat.

Abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- klassik garmoniyaning nazariy qonuniyatlarini bilish;
- nazariy bilimlarni fortepianoda ijro etish orqali namoyon etish;

- garmonik tushunchalarini qo'llash orqali Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyani fortepianoda ijro etish, diatonik yoki xromatik sekvenssiyalarni ijro etish.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyent "Garmoniya" fanidan o'quv dasturi doirasida to'laonli bilimga ega bo'lgan holda og'zaki mashqlarni xatosiz bajarish, garmonik qonuniyatlarni yechimini fortepianoda erkin namoyon etish, tahlil jarayonida garmonik nazariy va amaliy ko'nikmalarini namoyish qilish, shuningdek, fan bo'yicha egallagan bilimlarini ko'rsatish. Talabaning garmonik eshitish qobiliyati, garmonik tuzilmalarni fortepianoda ijro etish mahoragi yorqin namoyon bo'lishi kerak.

"Garmoniya" fanidan abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

OG'ZAKI TOPSHIRIQLAR

1. Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyalarni fortepianoda ijro etish.
2. Diatonik yoki xromatik sekvenssiyalarni ijro etish.

2-bosqich bo'yicha baholash

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyani fortepianoda ijro etish.	15,0
2.	Diatonik yoki xromatik sekvenssiyalarni ijro etish.	6,0

2-bosqich "Garmoniya" fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – 21, 0 ball.

3-bosqich "Solfedjio" fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi – barcha ixtisosliklar uchun musiqiy eshitishni rivojlantirish va kasbiy tayyorlanishda eng muhim predmetlardan hisoblanadi. Musiqiy eshitish darajasining yuqoriligi, kuylash malakasi va musiqiy xotirani kuchliligi xonanda va dirijorlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganlini namoyish etishdan iboratdir. Solfedjio fani bo'yicha talabalar o'rganilayotgan materialning qaysi millatga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar musiqiy eshitish, xotirani har tomonlama rivojlantirish, kuylash va tinglash jarayonida tovush tozaligini nazorat qilish kabi tasavvur, tushuncha va bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyent "Solfedjio" fanidan o'quv dasturi doirasida to'laqonli bilimga ega bo'lgan holda notaga qarab kuylash, musiqiy-nazariy va amaliy ko'nikmalarini namoyish qilish, shuningdek, fan bo'yicha egallagan bilimlarini ko'rsatish. Talabani solfedjio fanidan qobiliyatini yorqin namoyon bo'lishi kerak.

"Solfedjio" fanidan abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

OG'ZAKI:

1. Notanish bir ovozli misollarni dirijorlik qilib kuylash
2. Notanish ikki ovozli misollarni dirijorlik qilib kuylash
3. Interval va akkordlarni eshitib aniqlash.

3-bosqich boyicha baholash

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Notanish bir va ikki ovozli misollarni dirijorlik qilib kuylash:	
a)	Tonallikni to'g'ri aniqlash	2 ballgacha;
b)	Sof kuylash	7 ballgacha;
c)	Ritmik ketma-ketlikka aniq rioya qilish	6 ballgacha.
2.	Interval va akkordlarni eshitib aniqlash.	6 ballgacha.

3-bosqich "Solfedjio" fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – **21,0 ball.**

"Musiqqa tarixi va nazariyasi" fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – **63,0 ball**

Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo'yiladigan maksimal ball – 156,0 ball.

Ijodiy imtihonni o'tkazish tartibi

60211302 – Dirijorlik: opera-simfoniya dirijorligi

ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida oldindan belgilangan muddatlarda Toshkent shahridagi O'zbekiston davlat konservatoriyasi binosida ijodiy imtihon topshiradi.

60211305– Dirijorlik (estrada orkestri dirijorligi) ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida oldindan belgilangan muddatlarda Toshkent shahridagi O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Milliy estrada san'ati instituti binosida ijodiy imtihon topshiradi.

Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Ўзбекистон давлат консерваторияси “Чолгу ижрочилиги” факультети томонидан
2024-2025 ўқув йилида

60211302 – “Дирижёрлик:опера-симфоник дирижёрлиги”
60211303-Дирижёрлик: харбий(дамли)оркестр дирижёрлиги
60211304-дирижёрлик: Халқ чолгулари орестр дирижёрлиги
таълим йўналишида абитуриентлардан касбий (ижодий)
имтиҳонлар ўтказиш учун тузилган дастурга

ТАҚРИЗ

Олий таълимнинг бакалавриат таълим тизимида абитуриентлардан касбий имтиҳонлар қабул қилишларнинг касбий тайёргарлиги, ижро маҳорати ва мусикий лаёқатини аниқлаш мақсадида кафедраларда касбий (ижодий) имтиҳонлари ўтказиш муҳим аҳамиятга эга.

Маълумки, – “Дирижёрлик санъати” таълим йўналишида бўлажак дирижёрларини тайёрлаш бўйича абитуриентлардан касбий (ижодий) имтиҳонлар дирижёрлик қилиш маҳоратини ва колоквиум ишини қўллай олиши бўйича амалий кўникма ва малакаларини аниқлаш мақсадида ўтказилади.

Дастурда барча ижрочилик таълим йўналишларида бўлганидек, дирижёрлик санъатида ҳам абитуриент аввало ўзининг ижросини намойиш этиши асосий талаб этиб кўрсатилганлиги муҳим аҳамиятга эга. Ижодий имтиҳоннинг ушбу қисми бўйича баҳолаш мезонининг юқори қилиб белгиланганлиги, шунингдек, дирижёрлик ва коллоквиум талабларининг тўлиқ ва мукамал тузилганлиги мақсадга мувофиқ.

Мазкур дастур оркали абитуриентлар билимини объектив баҳолаш имконияти юзага келади. Дастурдан жой олган фанлар бўйича назарий билимлар, амалий кўникмалар ўрта умум таълим мактаблар ва касб-хунар коллежларининг ДТС ва намунавий дастурлари асосида ўқувчиларнинг эгаллаши лозим бўлган талаблар асосида тузилган, ҳамда барча талабларга мос келади.

Қайд этилган фикрларга асосан,

60211302 – “Дирижёрлик:опера-симфоник дирижёрлиги”
60211303-Дирижёрлик: харбий(дамли)оркестр дирижёрлиги
60211304-дирижёрлик: Халқ чолгулари орестр дирижёрлиги

йўналиши бўйича абитуриентлардан касбий (ижодий) имтиҳонлар қабул қилиш ва ОТМга кириш учун тузилган мазкур дастурни амалиётга тавсия этаман.

Қорақалпоғистон республикаси халқ артисти, профессор А.К.Абдуллаева



Ўзбекистон давлат консерваторияси

**“Оркестр дирижёрлиги” кафедраси доценти А.Д. Сахиев томонидан
60211302 – Дирижёрлик опера-симфоник дирижёрлиги, 60211304 – Дирижёрлик
харбий (дамли) оркестр оркестр дирижёрлиги, 60211304 – Дирижёрлик: халқ
чолгулари оркестри дирижёрлиги, таълим йўналишлари учун ижодий (касбий)
имтиҳонлар дастури ва баҳолаш меъзонига
ТАҚРИЗ**

Ижодий (касбий) имтиҳонлар дастури ва баҳолаш меъзони тобора мукаммаллашиб боришида у билан боғлиқ тавсия ва талаблар ўз навбатида тегишли ўзгариш ва қўшимчалар киритилишини талаб этади. Таълим тизимининг ислоҳ қилиниши натижасида кадрлар тайёрлашнинг замонавий кўринишдаги янги тизими жорий этилди.

Ёшлар орасида оркестрда ижрочиликка бўлган кизиқишини қондириш ва бадний эстетик онгини, фалсафий дунёқарашини ўстириш мақсад қилиб олинган ҳамда бадний ишларини ташкил этиш йўналиши бўйича ўрганилган. Мазкур меъзон амалдаги таълим малака талаблари ва намунавий ўқув режасига мос келади. Ушбу меъзон “Дирижёрлик санъати” йўналишига кирувчи бўлажак оркестр дирижёрларни билим даражасини, истикболи, ҳамда кўникмаларини аниқлашга қаратилган. Соҳанинг илк давридан то бугунги кунга қадар бўлган шаклланиш жараёнини қамраб олади. Унда оркестрда ижрочилик маҳорати бўйича янада мукаммал ва чуқур ўрганиш, жамоавий ижрочилик услубларини эгаллаш ҳамда тарғиб қилиш масалалари ёритилади.

Абитуриентларнинг оркестрда ижрочилик санъатини ривожланиш йўллари билан танишиб, кўникма ва малака шакллантириш, амалий машғулотлар, тажриба репетициялар воситасида ўз ижодий ёки ижро имкониятларини ҳамда зарур кўникмаларни ифодалаш савиясини аниқлашда, одилona баҳо бериш ва ижодий салохиятини ёритиб беришдан иборат.

Меъзон - бўлажак дирижёрларнинг билимига, кўникма ва малакасига қўйиладиган талаблар, бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва услубий жиҳатдан узвийлиги ҳамда замонавий ахборот ва педагогик технологиялар орқали имтиҳонларни ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар тўлақонли ифодалайди.

Шу сабабли меъзонга қўйиладиган барча талаблар амалиётда тадбиқ этишга тўлиқ жавоб беради, деган хулосани бериш мумкин.

Юқорида қайд этилганлардан келиб чиқиб, мазкур меъзонни таълим тизимига жорий этишга тавсия этиш мумкин, деб ҳисоблайман.

**Ўзбекистон давлат консерваторияси
“Оркестр дирижёрлиги” кафедраси
доценти**



А.Д. Сахиев

O'zbekiston davlat konservatoriyasi 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san'ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg'u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishlari uchun Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturiga

TAQRIZ

Taqdim etilayotgan 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san'ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg'u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishlari uchun ijodiy (kasbiy) *imtihonlar dasturlari* "Musika tarixi va nazariyasi" fanidan iborat bo'lib, o'z navbatida uch bosqichda amalga oshiriladi. Abiturientlar avval "Musika adabiyoti" fanidan nazariy bilimlariga, musika ilmidagi fikrlashlariga e'tibor beriladi. Ikkinchi bosqichda "Garmoniya" fanidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy ijro etilishi orqali ochib berilishini nazarda tutadi. Uchinchi bosqichda "Solfedjio" fanida kuy misollarini sof intonatsiyalash muhim bo'lib, nazariy bilimlarni amaliyotdagi aksini namoyish etishdan iborat.

Musika ilmining barcha ta'lim yo'nalishlarida tahsil olishni istayotgan abiturientlar uchun jahon xalqlari *musika adabiyoti*, o'zbek musika adabiyoti, xususan bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti hamda musiqashunoslikka oid maxsus adabiyotlar bilan tanish ekanligi muhimdir.

Musiqiy-nazariy fanlar bo'yicha garmonik ketma-ketlikdagi garmonik izchilliklarni ijrosi orqali amaliy hamda nazariy bilimlarini ko'rsata olishi, xususan notadan kuylay olishi, xalq ladlari, major-minor turlari, interval va akkordlarni kuylay olishi va tinglab aniqlashi zarur bo'ladi.

Mazkur o'quv dastur mantiqan izchil va to'g'ri tuzilgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda mazkur dasturni ta'lim tizimiga joriy etish mumkin deb hisoblayman.

O'zDK "Musika nazariyasi" kafedrası
katta o'qituvchisi



S.Maxmudova

O'zbekiston davlat konservatoriyasi 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Technogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san'ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg'u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishlari uchun Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturiga

TAQRIZ

Mazkur 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Technogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san'ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg'u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishlari uchun taqdim etilayotgan ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi "Musika tarixi va nazariyasi" fanidan iborat bo'lib, o'z navbatida uch bosqichda amalga oshiriladi. Abiturientlar avval "Musika adabiyoti" fanidan nazariy bilimlari, musika ilmidagi fikrlashlariga e'tibor beriladi. Ikkinchi bosqichda "Garmoniya" fanidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy jihatdan ochib berib, uchinchi bosqichda "Solfedjio" fanida nota yozuvida savodli o'qish mashqlari baholanadi.

Musika ilmining barcha ta'lim yo'nalishlarida tahsil olishni istayotgan abiturientlar uchun jahon xalqlari musika adabiyoti, o'zbek musika adabiyoti, xususan bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti hamda maxsus adabiyotlar bilan tanish ekanligi muhimdir.

Musiqiy nazariy fanlar bo'yicha garmonik ketma-ketlikdagi garmonik izchilliklarni ijrosi orqali amaliy hamda nazariy bilimlarini ko'rsata olishi, shuningdek notaga qarab kuylay olishi, lad, interval va akkordlarni kuylab, so'ngra tinglab aniqlay olishi zarur bo'ladi.

Mazkur o'quv dastur mantiqan izchil va to'g'ri tuzilgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda mazkur dasturni ta'lim tizimiga joriy etish mumkin deb hisoblayman.

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov
nomidagi MESI "Musiqiy nazariy va
tarixiy fanlar" kafedrasi mudiri, s.f.f.d. (PhD)

N.T.Xamdanova